









JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot)

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 207,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 71,5 mln. AQSh dollariga yoki 25,6 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	279,3	207,7	74,4	x
Eksport 	50,4	92,8	184,0	100,0
 tovarlar	50,2	92,6	184,0	99,7
 xizmatlar	0,2	0,2	97,5	0,3
Import 	228,8	114,9	50,2	100,0
 tovarlar	228,8	114,9	50,2	100,0
 xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0
Saldo 	-178,4	-22,1	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 92,8 mln. AQSh dollariga (84,0 % ga oshdi) va import hajmi 114,9 ming. AQSh dollariga (49,8 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 22,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



JIZZAX VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi,% da)

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	55,1	22,9	32,2	32,9
Turkiya	23,3	14,2	9,1	13,9
Rossiya Federatsiyasi	22,8	16,7	6,1	13,6
Koreya	22,6	0,0	22,6	13,5
Qozog'iston	11,7	6,2	5,5	7,0
Pokiston	3,6	3,5	0,04	2,1
Litva	3,5	0,0	3,5	2,1
Gonkong	2,9	0,0	2,9	1,7
Avstraliya	2,5	0,0	2,5	1,5
Italiya	2,3	2,3	0,04	1,4

Viloyatimiz jahonning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (32,9 %), Turkiyada (13,9 %), Rossiya Federatsiyasida (13,6 %), Koreyada (13,5 %), Qozog'istonda (7,0 %), Pokistonda (2,1 %), Litvada (2,1 %), Gonkongda (1,7 %) Avstraliyada (1,5%) va Italiyada (1,4 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da MDH davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya va Koreya hissasiga to'g'ri kelgan.

Rossiya Federatsiyasi
13,3 млн.долл.США



Qozog'iston
7,0 млн.долл.США



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 dan ortiq yirik hamkor-davlatlar orasidan 14 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (10,6 mln. AQSh dollari), Turkiya (5,2 mln. AQSh dollari), Pokiston (3,5 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (0,6 mln. AQSh dollari), Italiya (2,3 mln. AQSh dollari), Afgoniston (1,7 mln. AQSh dollari), Tojikiston (1,4 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (0,4 mln. AQSh dollari), Ukraina (0,3 mln. AQSh dollari), Portugaliya (0,2 mln. AQSh dollari), Indoneziya (0,1 mln. AQSh dollari), Ispaniya

(0,1 mln. AQSh dollari), Armaniston (0,1 mln. AQSh dollari), shular jumlasidandir. Qolgan davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



JIZZAX VILOYATINING 20 TA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI
(2021-yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	41,3	66,5	55,1
Eksport	6,0	5,2	22,9
Import	35,2	61,3	32,2
Saldo	-29,2	-56,1	-9,4
Turkiya	37,3	21,9	23,3
Eksport	8,6	9,2	14,2
Import	28,8	12,7	9,1
Saldo	-20,2	-3,5	5,2
Rossiya Federatsiyasi	32,9	21,3	22,8
Eksport	13,6	11,4	16,7
Import	19,4	9,9	6,1
Saldo	-5,8	1,5	10,6
Koreya Respublikasi	13,7	7,0	22,6
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	13,7	7,0	22,6
Saldo	-13,7	-7,0	22,6
Qozog'iston	11,3	4,0	11,7
Eksport	4,7	3,3	6,2
Import	6,6	0,7	5,5
Saldo	-1,8	2,6	0,6

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Pokiston	0,6	0,5	3,6
Eksport	0,4	0,5	3,6
Import	0,2	0,0	0,0
Saldo	-0,2	0,5	3,6
Litva	18,4	25,2	3,5
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	18,4	25,2	3,5
Saldo	-18,4	-25,2	-3,5
Gonkong	0,4	1,2	2,9
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,4	1,2	2,9
Saldo	-0,4	-1,2	-2,9
Avstraliya	0,0	0,0	2,5
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,0	0,0	2,5
Saldo	0,0	0,0	-2,5
Italiya	1,0	1,0	2,3
Eksport	0,9	0,7	2,3
Import	0,1	0,3	0,0
Saldo	-0,8	0,4	2,3
Tojikiston	4,4	2,2	2,0
Eksport	4,4	2,2	1,7
Import	0,0	0,0	0,3
Saldo	4,4	2,2	1,4
Germaniya	2,3	1,5	1,7
Eksport	0,5	0,0	0,0
Import	1,8	1,5	1,7
Saldo	-1,3	-1,5	-1,7


Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Afgoniston	0,8	0,5	1,7
Eksport	0,8	0,4	1,7
Import	0,0	0,0	0,0
Saldo	0,8	0,4	1,7
Eron	3,5	0,9	1,7
Eksport	1,7	0,2	0,8
Import	1,8	0,7	0,9
Saldo	-0,1	-0,5	-0,1
Qirg'iziston	1,6	1,8	1,6
Eksport	1,4	1,8	0,8
Import	0,1	0,0	0,8
Saldo	1,3	1,8	0,0
Hindiston	1,2	0,8	1,6
Eksport	0,0	0,1	0,2
Import	1,1	0,7	1,3
Saldo	-1,1	-0,6	-1,1
Polsha	1,0	0,7	1,2
Eksport	0,2	0,7	0,5
Import	0,8	0,0	0,7
Saldo	-0,6	0,7	-0,2
Ukraina	3,0	0,6	0,8
Eksport	1,0	0,4	0,5
Import	2,0	0,2	0,2
Saldo	1,0	0,2	0,3
Belarus	1,6	1,2	0,6
Eksport	0,2	0,4	0,0
Import	1,4	0,8	0,6
Saldo	-1,2	-0,4	-0,6

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Bangladesh	0,1	0,2	0,6
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,1	0,2	0,6
Saldo	-0,1	-0,2	-0,6

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga tayanib, 2021- yilning yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 23,9 % ni tashkil etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan ulushi 25,7 % ga oshdi.



JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLUKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning 2021- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 73,8 % tashkil etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan 35,3 % ga kamaydi.

JIZZAX VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyorlari soni 120 tani tashkil etib, ular tomonidan 92,8 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 84,0 % ga oshdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 % ni tashkil etib, sanoat tovarlari (67,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (14,8 %), turli xil tayyor buyumlar (9,9 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (3,6 %), mashina va asbob-uskunalari (0,6 %) nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (2,4 %), boshqa tovarlar (1,1 %) hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar (0,0 %) guruxi hissasiga to'g'ri kelmoqda.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyun mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	92,8	184,0	100	34,2	130,3	100	58,6	2,4 m.	100
<i>shu jumladan:</i>									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13,7	142,8	14,8	6,0	99,6	17,5	7,7	2,1 m.	13,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,3	198,6	2,4	0,6	4,1 m.	1,7	1,7	168,8	2,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3,3	3,5 m.	3,6	0,9	136,0	2,7	2,4	9,6 m.	4,1
Sanoat tovarlari	62,4	199,3	67,3	16,8	135,4	49,1	45,6	2,4 m.	77,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,6	114,8	0,6	0,5	119,0	1,5	0,1	96,6	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	9,2	147,7	9,9	9,2	150,9	26,9	0,0	1,0	1,7
Boshqa tovarlar	1,0	0,0	1,1	0,0	0,0	0,0	1,0	0,0	1,7
Xizmatlar	0,2	91,9	0,2	0,2	127,2	0,5	0,0	39,8	0,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari guruhiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar turli xil tayyor buyumlar guruhi hissasiga to'g'ri kelmoqda.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021-yil yanvar-iyun, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	39,4	19,1	14,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,1	2,3	2,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,0	0,9	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,8	1,9	3,6
Sanoat tovarlari	33,3	62,1	67,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	3,4	1,0	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	12,5	12,3	9,9
Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,7
Xizmatlar	0,5	0,4	0,2

2021- yilning yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan sanoat tovarlari guruhida o'sish kuzatildi.



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyun)**


XSST bo'limi nomi	Min. AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	7,6	140,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,6	3,3 m
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,5	2,5 m
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,3	2,7 m
Shakar va shakarli mahsulotlar	0,0	0,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1,3	155,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,1	95,7
Metall rudalari va metall parchalari	0,0	0,0
Qog'oz massasi va makulatura	0,0	0,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	0,0	0,0
Yog 'urug'lari	0,4	9,1 m
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	0,0	0,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	1,1	5,4 m
Boshqa joyda tafsiflanmagan kimyoviy mahsulotlar	0,02	2,6 m
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,3	7,6 m
Birlamchi bo'lmagan plastik	0,2	89,4
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	47,2	2,2 m
Yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	0,0	0,0
Cho'yan va po'lat	0,1	70,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3,4	144,8
Metaldan tayyorlangan buyumlar	0,2	62,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	0,0	0,0
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,4	113,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,0	0,0
Muayyan tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarilgan mashinalar	0,0	0,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	6,9	157,1
Poyabzal	0,0	0,0
Har xil tayyor buyumlar	0,03	26,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	0,01	2,1 m

O'tgan yilga nisbatan umumiy eksport hajmi oshdi va MDH mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 2020-yil yanvar-iyun oyidagi 52,5 % dan, 2021-yilning yanvar-iyun oyida 35,8 %, ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning shu davrida 47,5 % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oyida 64,2 % ga oshdi.



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-iyun oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida, Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 31,1 %), Rossiya Federatsiyasi (22,7 %), Turkiya (19,3 %), Qozog'iston (8,4 %), Pokiston (4,7 %), Italiya (3,1 %) va Tojikiston (2,3 %)

davlatlari egallab turibdi, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 91,6 foizni tashkil etmoqda.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-iyun, % da)**



2021- yilning yanvar-iyun oyida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Xitoy yetakchi mavqegini saqlab turibdi. Keyingi holatda Rossiya Federatsiyasi egalladi. Rossiya Federatsiyasidan ozgina ortda qolgan Turkiya uchinchi pog'onani Qozog'iston esa to'rtinchi pog'onani egallab turibdi.

Joriy yilning yanvar-iyun oyida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi (2020- yilning mos davriga nisbatan 28 ta davlat) 27 ta davlat bilan amalga oshdi.



**JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy	5,2	22,9	86,0	4,4 m	3	1
Rossiya Federatsiyasi	11,4	16,7	83,8	146,9	1	2
Turkiya	9,2	14,2	107,9	154,3	2	3
Qozog'iston	3,3	6,2	69,7	186,7	4	4
Pokiston	0,5	3,5	129,6	7,3 m	9	5
Italiya	0,7	2,3	71,9	344,3	7	6
Tojikiston	2,2	1,7	51,0	77,3	5	7
Afgoniston	0,4	1,7	56,7	3,9 m	10	8
Qirg'iziston	1,8	0,8	126,7	45,2	6	9
Eron	0,2	0,8	10,9	4,4 m	15	10
Polsha	0,7	0,5	3,3 m	82,7	8	11
Ukraina	0,4	0,5	39,4	135,2	12	12
Ozarbayjon	0,05	0,4	2,4 m	8,9 m	23	13
Hindiston	0,1	0,2	2,5 m	2,1 m	18	14
Portugaliya	0,0	0,2	0,0	0,0	0	15
Ispaniya	0,0	0,1	0,0	0,0	0	16

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari guruhlari kiradi.



**VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyun , mln. AQSh dollari)**

XSST tarkibi	Xitoy		Rossiya		Turkiya		Qozog'iston	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	5,2	22,9	11,4	16,7	9,2	14,2	3,3	6,2

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,5	3,2	0,8	0,2	0,3	0,1	1,5	3,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,2	0,5	0,0	0,0	0,6	0,8	0,0	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	1,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,2
Sanoat tovarlari	3,4	17,8	7,2	9,4	8,3	13,3	1,7	2,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,0	0,0	0,2	0,3	0,0	0,0	0,0	0,02
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,0	3,0	6,7	0,0	0,0	0,0	0,1


Xizmatlar

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki Xitoy, Rossiya, Qozog'iston va Turkiya davlatlariga eksportning asosiy ulushi sanoat tovarlari, oziq-ovqat maxsulotlari va turli xil tayyor buyumlar guruhi hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti hajmi 0,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,2 % ini tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 99,7 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (95,3) % transport xizmatlari (17,9 %) va safarlar (turizm) (12,2 %) xizmatlari hissasiga to'g'ri keladi.



XIZMATLAR EKSPORTI
(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyun, ming AQSh dollari)

Xizmatlar	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da
Jami xizmatlar	165,9	161,8	97,5
Transport xizmatlari	78,7	17,9	22,7
Safarlar (turizm) xizmatlari	12,7	22,1	174,0
Moliyaviy xizmatlar	74,5	121,8	163,5


JIZZAX VILOYATIINING IMPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

2021-yilning yanvar-iyun oyida viloyatning importyorlari soni 270 tani tashkil etib, ular tomonidan 114,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2020-yilning mos davriga nisbatan 49,8 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar import qilinishi ta'minlandi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (61,9 %) va sanoat tovarlari (12,5 %) guruhi hisobiga to'g'ri keladi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyun oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,8 mln. AQSh dollariga kamaydi va 144,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	114,9	50,2	100,0	17,9	145,2	100,0	97,0	44,8	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,4	282,0	9,9	8,5	234,4	47,3	2,9	680,7	3,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,3	26,4	1,1	0,2	5,5	1,1	1,1	92,7	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,7	113,4	0,6	0,7	124,0	3,8	0,1	55,9	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,0	0,2	0,2	0,0	1,1	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	11,7	128,6	10,2	2,5	170,5	14,0	9,2	120,5	9,5
Sanoat tovarlari	12,8	59,7	11,1	2,8	182,1	15,5	10,0	50,3	10,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	69,7	38,4	60,6	2,4	169,6	13,1	67,3	37,4	69,4
Turli xil tayyor buyumlar	7,1	94,7	6,2	0,7	405,3	3,9	6,4	87,4	6,6
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 6,2 % dan 10,0 % gacha va sanoat tovarlari 5,4 % dan 10,7 % gacha o'sdi. Mashinalar va transport asbob-uskunalari importining ulushi esa 66,7 % dan 61,9 % ga kamaydi.



IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2020- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,2	2,0	10,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,9	3,6	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,8	0,3	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,1	0,0	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,6	4,5	9,6
Sanoat tovarlari	5,4	9,5	10,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	66,7	75,8	61,9
Turli xil tayyor buyumlar	7,4	4,2	5,7
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0





**XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyun)**

Mahsulot nomi	MIn. AQSh dollari	2020-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,3	3,1 m
Tirik hayvonlar	5,1	29 m
Sut mahsulotlari	0,3	2,8 m
Meva va sabzavotlar	0,2	4 m
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,1	165,8
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,9	52,9
Go'sht va g'osht mahsulotlari	0,5	101,2
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	0,2	3,3
Metall rudalari va metall parchalari to'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,0	0,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,4	36,2
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,5	8,2 m
Kauchuk va rezina	0,0	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,6	123,2
Ko'mir, koks va briketlar	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	0,0	0,0
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	0,2	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2,7	136,8
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,2	152,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,8	80,8
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,1	127,4

Organik kimyo moddalari	1,2	2,2 m
Kraska va bo'yoq vositalari	0,2	157,4
Noorganik kimyo moddalari	1,1	2,6 m
Birlamchi bo'lmagan plastik	0,7	51,6
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	2,0	41,1
Metalldan tayyorlangan buyumlar	1,3	43,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1,3	34,1
Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlari	0,4	3,9 m
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	3,6	108,0
Rangli metall	1,2	126,0
Qog'oz va karton	0,2	12,8 m
Yog'ochdan ishlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,04	35,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	17,7	45,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	7,5	10,0
Avtomobillar va extiyot qismlari	20,1	18,3 m
Ish yuritish va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunalari	5,5	159,8
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	4,3	80,5
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	0,9	66,4
Energogenerator mashina uskunalari	0,2	8,5
Boshqa transport uskunalari	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3,6	122,8
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	0,5	13,7
Har xil tayyor buyumlar	0,8	124,1
Poyafzal	0,0	0,0
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	109,4
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,1	0,0



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2020- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori oltilikda o'zgarish kuzatilmadi.

Joriy yilning yanvar-iyun oyida hamkor mamlakatlarning tovar va xizmatlar importi bo'yicha geografiyasi (2020- yilning mos davriga nisbatan 39 ta davlat) 43 ta davlat bilan amalga oshdi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-iyun)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	61,3	32,2	174,1	52,5	1	1
Koreya Respublikasi	7,0	22,6	51,2	3,2 m	7	2
Turkiya	12,7	9,1	44,1	71,7	4	3
Rossiya	9,9	6,1	51,1	61,9	6	4
Qozog'iston	0,7	5,5	11,3	7,5 m	12	5
Litva	25,2	3,5	137,0	14,0	3	6
Gonkong	1,2	2,9	3,3 m	2,5 m	9	7
Avstraliya	0,0	2,5	0,0	0,0	0	8
Germaniya	1,5	1,7	85,4	109,5	8	9
Hindiston	0,7	1,3	58,4	2 m	14	10
Eron	0,7	0,9	38,7	122,8	13	11
Qirg'iziston	0,0	0,8	0,0	0,0	0	12
Polsha	0,0	0,7	0,0	0,0	0	13
Bangladesh	0,2	0,6	119,4	3,9 m	20	14
Belarus	0,8	0,6	57,8	74,1	10	15
Avstriya	0,1	0,5	12,1	5,8 m	22	16
Tojikiston	0,0	0,3	0,0	0,0	0,0	17
AQSh	0,0	0,3	0,0	0,0	0,0	18
Sheveysariya	0,3	0,2	38,5	87,1	17	19
Latviya	10,9	0,2	48,2	2,1	5	20

2021 yil yanvar-iyun oyida import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 34,3 % ulushi bilan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan yana birinchi o'rinni egalladi.

Yetti yirik hamkor davlatlar Xitoy Xalq Respublikasi (34,3 %), Koreya Respublikasi (24,1 %), Turkiya (9,7 %), Rossiya Federatsiyasi (6,5 %), Qozog'iston (5,9%), Litva (3,7 %) va Gonkong (3,1 %) jami importning 87,3 % ulushini egalladi va 81,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Litva va Gonkong tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (72) 221 51 26
bo'limi**